

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th June, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

KOREYA MILLIY MADANIYATI VA URF-ODATLARINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Marayimova Kibriyoxon Islomjon qizi

Farg‘ona davlat universiteti katta o‘qituvchisi, p.f.b.f.d.(PhD)

Ergasheva Yulduzxon G‘ayratovna

Farg‘ona davlat universiteti 1-bosqich magistranti

Hozirgi kunda Prezidentimiz tomonidan yosh avlodni chet tillarini o‘rganishiga katta e‘tibor qaratilmoqda. Hamda yoshlarni chet tili o‘rganish bilan birga umumbashariy madaniyatdan ham xabardor bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Chunki boshqa xalqlar madaniyati, uning yaratilish jarayoni, madaniyatlarning o‘zaro bog‘liqligi va bir-biriga ta’sir etishi jarayonidan xabardor bo‘lgan kishigina o‘z ajdodlarining ma’naviy boyliklarining qadriga yetadi, ularni asrab-avaylab, keyingi avlodlariga yetkazishga o‘z hissasini qo‘sha oladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek, «Jahon fani va madaniyatining eng yaxshi yutuqlarini o‘ziga singdirib oladigan yangi avlodni kamol toptirish» o‘ta muhim vazifadir. Zero, milliy va umuminsoniy qadriyatlarini o‘zida uyg‘unlashtirgan yosh avlodgina millatning haqiqiy kelajagi bo‘la oladi.

Koreya madaniyatini o‘rganishdan oldin madaniyat nimani anglatishini tushunishimiz kerak. Madaniyat so‘zi lotincha "cultura" dan olingan bo‘lib yetishtirish ma’nosini ifodalaydi. Madaniyat deganda intellektual va badiiy tushuncha ham tushuniladi. U jamiyatdagi umumiy hayot tarzini anglatuvchi ma’noga ega. Madaniyat asosan ma’lum bir jamiyat, jamoa, mamlakat tomonidan o‘zida mujassam qilgan urf-odatlar, e’tiqodlar va kishilarni turmush tarzini ifodalaydi. Bu ma’lum bir guruh odamlari tomonidan amal qiladigan qadriyatlar va meyorlarga ishora qiladi. Madaniyat dunyoni va biz yashayotgan jamiyatni qanday ko‘rishimizga, bir-birimiz bilan qanday muloqot qilishimizga ta’sir qiladi. Madaniyatning bir qismi bo‘lish bu bizning o‘rganishimiz, eslashimiz, gapirishimiz va o‘zimizni tutishimizga ta’sir qiladi. Shuning uchun madaniyat ko‘p jihatdan ta’lim va o‘qitish uslublarini belgilaydi.

“Madaniyat bola uchun qanday ahamiyatga ega?”- degan savolga quyidagicha javob berish mumkin:



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th June, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

1. Madaniyat qadriyatlar, e'tiqod va an'analarni o'rgatadi.
2. Ota-onalar, aka-ukalar, tengdoshlar va o'qituvchilar bilan ijtimoiy munosabatlarga ta'sir qiladi.
3. Madaniyat ularning tili va muloqotiga ta'sir qiladi.

Madaniyatga asoslangan ta'lim - bu har qanday madaniyatning asosi bo'lgan qadriyatlar, meyorlar, e'tiqodlar va amaliyotlar asosida o'qitish va o'rganishning yondashuvidir. Garvard professori Jerom Brunerning ta'kidlashicha, "Madaniyat ongni shakllantiradi, u bizga nafaqat dunyomizni, balki o'zimizni va o'zligimizni anglash uchun ma'lumotlar to'plamini beradi".

Koreya madaniyati - bu Koreya xalqi tarixda Koreya yarim orolida markazlashgan holda shakllangan hayotini o'zida mujassam etgan davrning yig'indisi deyish mumkin. Tarixan Koreya 5ming yillik uzoq tarixga ega. O'sha paytda Koreya yarim oroli orqali Koreya boshqa davlatlar bilan almashinuv olib brogan va koreyslar Osiyoda, jumladan, Yaponiyada, Shimoliy va Janubiy Amerikada, Evropada guruhlar bo'lib yashaganlar. Koreys xalqi sifatida ular o'zlari yashab turgan hudud madaniyati bilan muloqotda bo'lib, o'ziga xos koreys madaniyatini shakllantirganlar. Ularning madaniyatini keng ma'noda koreys madaniyati sifatida ko'rish mumkin, chunki u koreys xalqi tomonidan shakllantirilgan madaniyatdir. Koreya madaniyati va san'ati so'nggi paytlarda butun dunyo e'tiborini tortmoqda. Mumtoz musiqa yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan yoshlar xalqaro tanlovlar sahnasini zabt etmoqda va ko'plab koreys badiiy asarlari xorijiy tillarga tarjima qilinib, xorijlik kitobxonlarni ham maftun etmoqda. Koreyalik rassomlarning asarilari dunyodagi eng e'tiborga molik san'at asarlaridan biri sifatida tilga olinmoqda. Koreyaning musiqa, san'at, adabiyot, raqs, arxitektura va milliy taomlaridan iborat bo'lgan madaniy merosi, an'ana va zamonaviylikning ajoyib uyg'unligini o'zida mujassam etadi. Ayni paytda Koreya san'ati va madaniyati butun dunyo bo'ylab ko'plab chet elliklarni o'ziga jalb qilmoqda.

Koreya madaniyatining dunyo tan olgan badiiy mukammalligi bir kunda yaratilmagan. Koreyslarning "Uch podshohlik" ya'ni, Silla, Goro va Joseon sulolalari orqali boyib, chuqurroq bo'lib bordi va ajdodlarining ana shunday badiiy meroslari orqali madaniyati boyib ketdi. Koreyaning qadim zamonlardan beri meros bo'lib qolgan ko'plab madaniy va san'at merosi YUNESKO himoyasi ob'ektlari ro'yxatiga kiritilgan.

Koreya milliy madaniyati uning bo'linishi, ya'ni 1945-yilda oldingi Koreya va Janubiy Manjuriyaning tarixiy va madaniy merosini o'z ichiga oladi. Manjuriya bu



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th June, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Shimoliy Sharqiy Osiyodagi qadimiy, tarixiy va geografik mintaqa hisoblanadi. Jumladan, Xitoy va Rossiya kabi mamlakatlar hududining bir qismidan tashkil topgan edi. Koreyslar dunyodagi eng qadimgi madaniyatlaridan biri sifatida o'zlarining rivoyatlarini namuna qilib ko'rsatdilar. Koreya hududi XX asrning o'rtalarida Shimoliy Koreya va Janubiy Koreya o'rtasida bo'linib ketganligi sababli hozirgi paytda ular orasida madaniy farqlar kuzatiladi.

Koreya milliy kiyinish madaniyati tarixi kamida Uch Qirollik davriga borib taqaladi. Buni turli qabrlardagi devoriy rasmlar tasdiqlaydi. Koreyslarning milliy kiyimi Hanbok tarixiga nazar solsak Gogureo, Baekje va Sillaning Uch Qirolligi davridan boshlangan. Hanbokning birinchi izlari Gogureo davridagi shohlar va zodagonlar qabridagi devoriy rasmlarda bo'lgan. O'sha paytda koreyslar kiygan Hanbok shim va jeogori bilan kiyiladigan shimoliy hobokdan boshlangan deb hisoblanadi. Yuqori lavozimdagi odamlar oddiy odamlarga qaraganda ancha qimmat va hashamatli kiyim kiyishgan. Muayyan shakl yoki rangdagi kiyimlarni faqat qirollik oilasi kiyishi mumkin bo'lgan va har bir hukumat monarxiyasi ya'ni o'z ramziga ega edi.

Janubiy Koreya madaniyatidagi amal qilinadigan holatlar.

1. Oyoq kiyimlarini ibodatxonalarda yoki odamlarning uylariga kiygan holda kirmaslik lozim.
2. Oyoqlarni mebelga ustiga qo'yimaslik lozim.
3. Yurish paytida jamoat joylarida ovqatlanmaslik va ichmaslik lozim.
4. Musht qilayotganda bosh barmoqni o'rta va ko'rsatkich barmoqni orasiga qo'yimaslik lozim, chunki bu odobsiz ishoradir.
5. Qizil siyoh ishlatmaslik lozim. Bu o'lim ramzi va faqat marhumning ismlarini yozish uchun qizil siyohdan foydalaniladi. Qizil siyoh omadsizlik belgisi hisoblanadi va oluvchiga o'limni tilash ma'nosini anglatadi.
6. To'rt raqamdan foydalanmaslik kerak. Koreyada sovg'a berganda ham 4 ta sovg'a bermaslik lozim Koreyscha o'lim so'zi va "to'rt" so'zining talaffuzi o'rtasidagi o'xshashlik bo'lganligi uchun bu omadsiz raqam hisoblanadi.
7. Birinchi marta uchrashayotgan odamlarga juda yaqin turmaslik kerak. Orada qo'l uzunligicha masofa saqlash lozim.

Janubiy Koreyada har yili ikkita asosiy bayram nishonlanadi.

1. Yanvar va fevral oylarida yangi yili kuni "Seollal" bayrami.
2. Sentabr va oktabr oylarida shukrona kuni ya'ni "Chxusok" milliy bayramlari nishonlanadi. Ikkala bayram ham oila bilan birga nishonlanib, ajdodlarni hurmat



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th June, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

qilish, bayram taomlarini tortish va oilaviy o‘yinlar o‘nab o‘tkaziladi. Bularning barchasi koreys an‘analari va urf-odatlarining bir qismi hisoblanadi.

Sollal (설날) - oy taqvimining birinchi kuni hisoblanadi. Yangi yil uch kun nishonlanadi: Yangi yil arafasi, Yangi yil kuni va ertangi kun dam olish kunidir. Yangi yilda koreyslar birinchi bo‘lib quyosh nurlarini ko‘rish uchun ota-onalari bilan birga mamlakat sharqiga va dengiz sohiliga sayohat qilishadi. U yerda yangi yilning birinchi quyoshi chiqishini kuzatishadi. Bu kuni vafot etgan ajdodlar ham yodga olinadi. Yangi yil tongida guruchli non va ttokkuk(떡국) iste‘mol qilish an‘ana bo‘lib qolgan. Kim birinchi bo‘lib ttokkukni yeb bo‘lsa, u bir yoshga ulg‘aygan hisoblanadi. Ba‘zida koreyslar sizning yoshingizni “Siz nechta kosa ttokkuk yegansiz?” iborasi bilan so‘rashi mumkin. Ushbu bayramning eng muhim qismidan biri bu Sebae (세배) ya‘ni ta‘zim qilish marosimi bajarish sanaladi. Unda butun oila Hanbok (한복) kiyadi va yangi yil ko‘p omad va baxt olib kelishini tilab chuqur ta‘zim qiladi. Ota-onalar esa ularga pul berib, yangi yil sovg‘alarini hadya qiladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. An Introduction to Korean Culture for Rehabilitation Service Providers. Center for International Rehabilitation Research Information & Exchange. 2020
2. Culture of NORTH KOREA. Every Culture. Retrieved 2012
3. Hanbok libosi tarixi 27-avgust 2022-yil.
4. Hanbok Renaissance Goes from Strength to Strength, Volume 23. 2017
5. Ibrohimova Marhabo “Xorijiy tildari o‘qitishda madaniyatlararo muloqotni shakllantirish ahamiyati” 2022
6. Korean Culture, Volume 23, Issue 2.
7. Usmon Qoraboyev, G‘ayrat Soatov. O‘zbekiston madaniyati, 2011
8. 사회통합프로그램 [KIIP] 위한 “한국사회 이해” 2020

Internet veb sahifalar:

<https://www.koreanculture.org>

<https://www.commisceo-global.com>

<https://koreankulture.com> › ko.

<https://www.globalizationpartners.com>

